



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYA BERISH

Odinaboyev F.B.

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti doktaranti

Tayanch so‘zlar: texnologiya, kreativ texnologiya, milliy hunarmandchilik, kasbiy tarbiya, kulolchilik, taqinchoqlar, ustaxona, bezaklar, mehnat qurollari.

Ключевые слова: технология, творческая технология, народные промыслы, профессиональная подготовка, гончарное дело, ювелирное дело, мастерская, украшения, орудия труда.

Key words: technology, creative technology, national crafts, vocational training, pottery, jewelry, workshop, decorations, tools.

Kirish. Jahonda ijodkor yoshlarni tarbiyalash va raqamli – kreativ texnologiyalar bir nechta hunarni egallashga qaratilgan ta’lim jarayonlariga tatbiq etilgan. Xususan, o‘quv ilmiy-tadqiqot muassasalarida texnologik ta’lim orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy hunarmandchilikka oid ijodkorlik faoliyati, intellektual qobiliyati, axloqiy va estetik hissiyotlarini raqamli ta’lim ko‘magida takomillashtirish, qiziqishi, xohish va istagini, olamga hissiy munosabatini shakllantirish, pedagogik mexanizmlarining imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda o‘quvchilardagi ijodkorlikni aniqlash, ixtirochilikka qiziqish, milliy hunarmandchilikka oid ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish buyicha tadqiqot ishlariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar tufayli texnologiya ta’limidan boshlab o‘quvchilarning fan asoslari bo‘yicha bilimni o‘zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 29-aprel PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6 noyabrdagi PF-6108-son



“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilmfan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Mamlakatimizda A.Avazboyev, L.R.To‘rabekov, N.Shodiyev, R.H.Djurayev, M.Qodirov, U.Nishonaliyev, A.Parmanov, O.R.Roziqov, O‘.H.Tolipov, I.T.Choriyevlar texnologiya fanida o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid ijodkorligini rivojlantirish, milliy va xalq hunarmandchiligi sohalarini hamda ularni turli bosqichlarga bo‘lib o‘rganishning ta’lim-tarbiyaviy jihatlari bo‘yicha S.Bulatov, O.Jamoliddinova, M.X.Shomirzayev, B.E.Qodirov, F.X.Mukumova, S.Hasanov, I.Karimov, Q.Qosimov, O.Xudoyorova, A.Turdialiyev, R.Sarsenbayeva, D.Zohidova, S.S.Igamovlarlar “kompetentlik”, “kasbiy tarbiya” tushunchalarining mazmuni-mohiyatini o‘rganib taqdiq etishgan bo‘lsa, ta’lim oluvchilarning kasbiy tarbiya olishlarini rivojlantirish masalalari N.A.Muslimov, B.R.Adizov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo‘ysinov, R.X.Fayzullayev, K.T.Umataliyeva, N.Sh.Turdimov, L.R.Zaripov, G.O.Najmiddinovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlaridan V.I.Kachnev, A.V.Yefanov N.S.Falkova, Yu.G.Lipes, V.D.Jukov, S.T.Tolstov, V.M.Masson, A.T.Trenojkin, S.R.Rusakina, N.N.Baranskiy, N.S.Mironenko, G.Ye.Muraveva, N.V.Kuzmina, A.G.Nizalievlarining ta’lim tarbiyaviy jarayonda o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari, shaxsning ijodkorlik qobiliyatlari bo‘yicha olib borgan tadqiqot ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning D.Bell, D.Medous, P.Kuusi, E.Toﬀler, J.Masudalar kabi olimlar texnologik ta’lim mazmunini zamonaviylashtirish, texnologik kompetentlikni shakllantirish, uni jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashtirish masalalari, G.Spenser, B.Blum, R.Mohanlar ta’limda ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kompetentlik masalalari, kasbiy-metodik yetuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirish nazariyalarini yoritib berishgan.

Hunarmandchilik - O‘rta Osiyo xususan, O‘zbekiston hududida neolit davrida vujudga kelgan. Hunarmandchilik – oddiy mehnat qurollari yordamida xomashyolar, turli mahsulotlar ishlab chiqarish kasbidir. Tariximizdan ma’lumki, yirik sanoat



ishlab chiqarishi vujudga kelgunga qadar keng tarqalgan, ayrim sohalari hozirda ham saqlangan bo‘lib, u davr o‘tishi bilan takomillasha borib, turli tarmoqlarga ajralib borgan. Masalan: kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokarlik, toshlarashlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, zargarlik, degrezlik, rextagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, tunkasozlik va o‘nlab boshqalarni aytishimiz mumkin.

Hunarmand iborasining tub ma‘nosini ochadigan bo‘lsak, uni ikki yondashuvda ta‘riflashga to‘g‘ri keladi:

birinchisi uyda yoki o‘z kasbiy do‘konida biror mahsulot ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lgan kosib;

ikkinchisi biron hunarni yaxshi egallagan usta.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti natijasida hunarmandchilik 3 xil shaklda rivojlangan:

- 1) uy hunarmandchiligi;
- 2) buyurtma asosida mahsulot tayyorlaydigan;
- 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan.

Uy hunarmandchiligi kapitalizm bosqichiga eng keng tarqalgan turi bo‘lgan. Hunarmandchilikning bu turi natural xo‘jalikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaharlar o‘sishi bilan buyurtma asosida mahsulotlar ishlab chiqarish kengaydi va hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi. Natijada, hunarmandchilik mahsulotlari tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarila boshlandi.

Kasbiy tayyorgarlik tizimi o‘ziga xos taraqqiyot tarixiga ega bo‘lib, bevosita quyidagi ishlarni amalga oshirishdan iborat (1-rasm):

So‘nggi yillarda mamlakatda ta‘lim-tarbiya tizimi sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ta‘lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta‘limning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi natijasida o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirishning,



1-rasm. Kasbiy tayyorgarlik tizimi



xalq xo‘jaligini yuqori malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlashning samarali tizimi yaratilmoqda.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham ta’lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va raqamli makonda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilgan. Unda har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kasbga o‘qitish ko‘lamini yanada oshirish masalalari asosiy maqsad qilib belgilangan. Bu esa raqamli asrning yangi sharoitida yoshlarni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlashda kasbga yo‘naltirish tizimining ahamiyatini o‘zida aks ettiradi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ham yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ahamiyati nechog‘li muhimligini ko‘rsatib turibdi.

O‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanishi natijasida 3-4-sinf o‘quvchilari texnologiya fanini o‘zlashtirish jarayonida turli tabiiy materiallardan xilma-xil mahsulotlarni o‘z qo‘llari bilan yasaydilar yoki ularga yaqin (mato, qog‘oz, rangli metallar va boshqalar) materiallarga qo‘lda ishlov berib, san’at asarini yaratadi.

Milliy va xalq hunarmandchiligi turli sohalari gilamchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, suyak va metall o‘ymakorligi, kashtachilik, milliy pazandachilik asoslari, milliy qandolatchilik, egar-jabduqlar tayyorlash, so‘zanalar tikish, pichoq tayyorlash, temirchilik, kandakorlik, rextagarlik (qo‘ng‘iroqsozlik), charmdo‘zlik, etikdo‘zlik, do‘ppi va choponlar tikish, milliy imoratcozlik, sandiqlar va beshik yasash, milliy dehqonchilik asoslari va boshqa shu kabi turlarga bo‘linadi.

Bu sohalardagi umumta’lim maktablarida qo‘llanilishining ilmiy-pedagogik asoslari, metodik yo‘llari, vositalari, mazmuni, usublari butunligicha mujassamlantirilgan holda shakllantirilmagan. Milliy hunarmandchilikning dastlabki bosqichlarini amaliyotga qo‘llash, yosh avlodga o‘rgatish jarayonida ta’lim, tarbiya va boshqalar bir butun tizim holida ishlanmasdan, xalq ta’limi tizimida qo‘llanilmasdan kelinmoqda. Zero, davlatimizning mustaqil respublika sifatida shakllanishi, turli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar har bir xalqning milliy qadriyatini ulug‘lash davri tadqiq etilganligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’limda 3-4-sinf o‘quvchilarining milliy hunarmandchilikning dastlabki mexanizmlarini rivojlantirish orqali kasbiy tarbiya berish umumta’lim maktablarida ta’lim jarayonining alohida nuqtai nazari bo‘lib, u “tadqiqotchi-muammo-muammoning optimal yechimi” tizimida amal qiladi. Muammoni yaxlit tizim sifatida tasavvur etib, uning tarkibiy qismlari ajratildi. Ajratilgan tarkibiy qismlar – kichik bo‘limlarga ko‘ra, hamkorlik aloqa, munosabatlar belgilab olinadi. Bular komponentlarning ierarxik – yuqoridan qo‘yi, umumiydan xususiyga yo‘nalgan bog‘lanishlarni ajratishga zamin tayyorlaydi. Tizimli tahlilga ko‘ra, milliy hunarmandchilikka oid kasbiy tarbiya berishni tashkil etishning o‘zaro daxldor qismlari ajratiladi:

- ijodkorlikka yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish;

- ▶ yangi bilimlar mazmunini ijodiy o‘zlashtirish;
- ▶ o‘quvchilarda milliy hunarmandchilikka oid kasbiy tarbiyalarni rivojlantirish.

Haqiqatan ham, ijodkorlikka yo‘naltirilgan ta‘limni ijodkorlikka yo‘naltirilmagan ta‘limdan farqlash orqali o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid kasbiy tarbiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘limni tashkil etish, o‘quvchilarning ijodiy o‘zlashtirishini tahlil qilish va ularda milliy hunarmandchilikka oid ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qarab boriladi.

Darslarni kuzatish va qayd qilishda TerDU professori M.X.Shomirzaev ishlab chiqqan dars turlarini asos qilib oldik. Bunda quyidagi dars turlari qayd qilingan:

- √ yangi o‘quv materialini o‘rgatish va mustahkamlash darslari;
- √ o‘tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari;
- √ bilim va malakalarni umumlashtirish darslari;
- √ bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish darslari.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinflarda texnologiya faniga oid dars turlarining har birida o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid kasbiy tarbiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ta‘limni tashkil etishning spektrial-variantiv imkoniyatlari nihoyatda keng.

Tadqiqot ishimizda yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, texnologiya ta‘limida 3-4-sinf o‘quvchilarining milliy hunarmandchilikning dastlabki mexanizmlarini rivojlantirish orqali kasbiy tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

Texnologik ta‘limda 3-4-sinf o‘quvchilarining milliy hunarmandchilikning dastlabki mexanizmlarini rivojlantirish orqali kasbiy tarbiya berish mexanizmlarini bir butun tizim sifatida tahlil qilish maqsadida faoliyatli model ishlab chiqildi. Mazkur model uchta blok (maqsadli blok, jarayonli blok va natijaviy blok)lardan tashkil topgan.

Maqsadli blok maqsad va vazifani o‘z ichiga olib, 3-4-sinf o‘quvchilarining milliy hunarmandchilikning dastlabki mexanizmlarini rivojlantirish orqali kasbiy tarbiya berish jarayoni modelning asosiy maqsadi sifatida keltirilgan.

Shuningdek, maqsad ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga ajratilib ko‘rsatilgan.

Modelning maqsadi uch darajada kiritildi: ta‘limiy – innovatsion yondashuvlar asosida “Texnologiya” fanini sinfda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonini tashkillashtirish, 3-4-sinf o‘quvchilarida milliy hunarmandchilikka oid tushunchalar bilan tanishtirish, tarbiyaviy – 3-4-sinf o‘quvchilarida milliy hunarmandchilikka oid kasbiy tarbiyasini rivojlantirish (milliy hunarmandchilikning turlari, buyumlarni yasash va tikish (qo‘lda va mexanik ishlov berish)) jarayonida kreativ yondashuvlar asosida o‘rgatish, rivojlantiruvchi – o‘quvchilarning milliy hunarmandchilikka oid ilmiy manbalarni kreativ yondashuvlar asosida o‘rganish, ularni elementar tahlil va sintez qila olish kompetensiyalarini rivojlantirish.

Ushbu maqsadga erishish uchun to‘rtta vazifani belgilab oldik. Ular quyidagilar - 3-4-sinf o‘quvchilarining milliy hunarmandchilikning dastlabki mexanizmlarini



rivojlantirish orqali kasbiy tarbiya berish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan psixologik, pedagogik, metodik omillarni tahlil etish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Pedagogik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri jarayonni amalga oshirish uchun mashg'ulot kerak bo'ladi. Mazkur ishimizda mashg'ulotlarni sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirish tadqiq etildi. 3-4-sinf o'quvchilarining milliy hunarmandchilikka oid olgan nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma malaka va kompetensiyalarini hamda ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, innovatsion fikrlash doirasini kengayishi, xotirasining o'sishi, tasavvur etishi natijaviy omillar bo'lsa, unda ta'lim texnologiyalarini qo'llashning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlarini boyitish va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bugunning davr talabi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. –B. 276.
2. Mirziyoyev SH.M. Xalq zakovati va qadriyatlarining gultoji.//O'zbekiston hunarmandchiligi durdonlari. Kitob-albom.–T.:O'zbekiston, 2019. – B. 6-7.
3. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati – T.: -Mehnat nashriyoti, 1991. – 45. b.
4. Musayev N. O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati va agrar munosabatlar tarixidan. – Toshkent, 2005. – B. 68-69.
5. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: Sharq, 2001. – B. 255.
6. Akramov.V.XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistonda hunarmandchilik. -OKF. 1973 yil, 1-soni, - B. 58.
7. Bulatov.S.S. Yoshlarga hunar o'ragtishning miliy, an'anaviy asoslari. Matodik tavsiya – T.: RUMM.1993. – 34. b.

РЕЗИОМЕ

Inson farzandi voyaga yetgach o'z qiziqish, qobiliyat va imkoniyatlariga qarab biror kasb yoki hunarni tanlaydi. Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki kasbiy faoliyat uzoq vaqt davomida inson hayotining ajralmas qismiga aylanib qoladi. Aynan kasb tanlash borasidagi ishlarni tartibga solish, ongli kasb tanlashda kasb-hunarga yo'naltirish faniga, kasbiy tayyorgarlik tizimiga, kasbga yo'naltirishning tarixiy taraqqiyotiga doir bilimlarni bilish talab etiladi. Mazkur maqolada kasbga yo'naltirish – bu yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish, bu odamga o'z individual qobiliyatlari va jamiyat unga taqdim etgan imkoniyatlar asosida kasb tanlashda yordam ko'rsatish ekanligi haqida so'z boradi.

РЕЗИОМЕ

Когда человеческий ребенок достигает совершеннолетия, он выбирает профессию или профессию в зависимости от своих интересов, способностей и возможностей. Профессиональная деятельность важна в жизни каждого человека. Потому что профессиональная деятельность уже давно становится неотъемлемой частью жизни человека. Для регулирования работы по выбору профессии необходимо знать знания науки профориентации, системы профессиональной подготовки, исторического развития профориентации. В данной статье говорится о профориентации - приобщении молодежи к миру профессий, помощи человеку в выборе профессии исходя из его индивидуальных способностей и возможностей, предоставляемых обществом.

SUMMARY

When a human child reaches adulthood, he chooses a profession or a profession depending on his interests, abilities and opportunities. Professional activity is important in everyone's life. Because professional activity becomes an integral part of human life for a long time. It is necessary to know the knowledge of the science of vocational guidance, the system of vocational training, and the historical development of vocational guidance in order to regulate the work of choosing a profession. This article talks about career guidance - introducing young people to the world of professions, helping a person to choose a profession based on their individual abilities and opportunities provided by society.